

**AKSILOGIYA-QADRIYATSHUNOSLIK FALSAFASI**

**Boltayeva Shoira Baxodir qizi**

DTPI-filologiya fakulteti, xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili 1-bosqich talabasi

Tel: +998944241323 Elektron pochta:shoiraboltayeva123@gmail.com.

**Mamatmo'minova Nozima Fozil qizi**

DTPI-filologiya fakultet, xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili 1-bosqich talabasi

Tel: +998932818184 Elektron pochta:Xojamurodovfozil@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada, aksiologiya tushunchasi va uning tarixi, qadriyatlarning shakllanishi va jarayonlari, shuningdek, qadriyatlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi roli tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni tiklash va hayotga tadbiq etishni yanada takomillashtirish haqida xulosalar keltirilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** aksiologiya, ijtimoiy, tarixiy ildiz, ilmiy izlanish, oliy qadriyat.

**ANNOTATION:** This article analyzes the concept of axiology and its history, the formation and processes of values, as well as the role of values in social and personal life. Conclusions are provided on restoring national values and further improving their application in life.

**KEY WORDS:** Axiology, social, historical roots, scientific research, supreme value.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируются понятие аксиологии и её история процессы формирования ценностей а также роль ценностей в общественной и личной жизни. Приведены выводы о восстановлении национальных ценностей и их дальнейшем совершенствовании и в жизни.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Аксиология, социальные, исторические корни, научное исследование, высшая ценность.

Qadriyatlar to'g'risidagi fan — Aksiologiya (aksio — qadriyat, logos fan, ta'limot ma'nosini anglatadi) falsafaning shu masalani o'rganadigan va u bilan shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davrida bu tug'rida nihoyatda kam ma'lumotlar bor edi. Istiqloq tufayli qadriyatlar tug'risidagi qarashlarimiz shitob bilan o'zgardi. Sobiq Ittifoqning ilgari ulug'langan partiyaviy-sinfy qadriyatlari sarobga aylandi, zamon realliklari talablariga javob bera olmay, o'tgan o'n yilliklardan iborat tarix sahifalari bilan birga yopilib ketdi. O'zbekistonda qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, uning turli qirralari olim va mutahassislar tomonidan tahlil etilmoqda. Qadriyatlar falsafasi — Aksiologiyaning ko'pdan-ko'p mavzulari mutahassislarimizning ilmiy izlanishlarida o'ziga xos o'rin tutmoqda. Qadriyatlar haqidagi ma'lumot yaqinda vujudga kelgan deb hisoblash odat tusini olgan. Ammo bu noto'g'ri. Falsafa tarixda ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrlardanoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashirilgan, qadriyaga xos bo'lgan xususiyatlar uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchida esa abadiy, yengilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi deb hisoblagan.

Qadriyatlar insoniyat tarixida turli omillar ta'sirida shakllangan. Diniy, axloqiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar qadriyatlarning rivojlanishiga va ularning jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, diniy qadriyatlar, aynisa islomda, axloqiy o'rnak va hayot tarzini belgilovchi me'yorlarni yaratgan. Boshqa tomondan, ma'rifatparvarlik davrida yangi ilmiy yondashuvlar, inson huquqlari va erkinlik kabi qadriyatlarning rivojlanishiga yordam bergan. Aksiologiya jamiyat va insoniyat tarixida qadriyatlarning shakillanishiga ta'sir qilgan turli omillarni tahlil qiladi. Ularning mohiyati ko'pinchga ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, qadr-qimmat, erkinlik, adolat, tenglik kabi umumiy insoniyat qadriyatlari butun dunyo bo'ylab qadrlanadi, biroq ularning shakillanishi va anglanishi har bir jamiyatda farq qiladi. Qadriyatlar har bir insonning axloqiy va estetik qarashlari, uning maqsad va orzulariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bularning barchasi insonning ijtimoiy hayoti, oilaviy munosabatlari, mehnat faoliyati va shaxsiy hayotiga ta'sir qiladi.

Aksiologiya jamiyatda axloqiy qoidalar, an'analar va urf-odatlarining shakillanishi va rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Jamiyatda qadriyatlar tizimi ijtimoiy hayotni tartibga solish, odamlar o'rtasida adolatni ta'minlash va hamjihatlikni saqlashga xizmat qiladi. Aksiologik qadriyatlar, masalan, inson huquqlari, erkinlik va tenglik kabi tushunchalar zamonaviy jamiyatda barcha fuqorolarni birlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qadriyatlar falsafasi siyosiy tizimlar, axloqiy qarorlar, ta'lim va tarbiya sohalarida ham ahamiyatga ega. Bu sohalarida aksiologik qarashlar jamiyatning axloqiy me'yorlarini belgilaydi va ularni yangilash, rivojlantirishga yordam berdi. Jamiyat va inson hayotda qadriyatlarning rolini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.
2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq qadriyatlar. Bunga moddiy va ma'naviy ehtiyojarni qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlar kiradi.
3. Oliy qadriyatlar- bu yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarning mavjudligi individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Aksiologiya qadriyatlar falsafasi ijtimoiy hayot, insonning axloqiy va estetik qarashlari, tarixiy jarayonlar va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Ularning asosiy maqsadi qadriyatlarning mohiyatini aniqlash va ularning inson hayoti va jamiyatdagi rolini tushunishga qaratilgan. Falsafiy nuaqtai nazardan, aksiologiya nafaqat axloqiy muammolarni, balki insoniyatning umumiy rivojlanishi, mehnat, san'at va bilim sohalaridagi qadriyatlarni o'rganadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov LA. Asarlar to'plami. 1-18 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2011 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.-176.
2. Karimov LA. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash bizning oliy maqsadimiz. T.17. -Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Falsala asoslari. Nazarov Q tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005 13.
4. G'arb falsafasi. Nazarov Q tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.

5.Shermuxamedova N. A. Falsafa va fan metodologiyasi. -T.: Universitet, 05